- investitsion xatti-harakatlarni amalga oshirish yuzasidan qat'iy qoidalarni belgilash orqali qulay iqtisodiy konyunkturani yaratish va qo'llab-quvvatlash;
- investitsiyalar evaziga shakllanadigan daromadlarni taqsimlashda risk darajasini qisqartirish va nomutanosibliklarni minimallashtirish;
- investitsion siklda aholi bo'sh mablag'lari hajmini ko'paytirish, hamda ularning jamg'armalarini va investitsion imkoniyatlarini himoya qilish;
- monopol ta'sirlarni minimal darajaga tushirish.

Uy xo'jaligi sektori mamlakat aholisini o'z ichiga olgan holda boshqa subyektlarga nisbatan mablag'larni jamg'arishga ham, investitsiyalashga ham intiladi. Yuqori salohiyatga ega bo'lgan investorlar kraufdanding modelini mablag'larni yo'naltirishning usullaridan biri sifatida qaraydilar. Kraufdanding modeli faoliyatni jamoaviy shaklda moliyalashtirish usuli bo'lib, bunda pul mablag'lari yoki boshqa investitsion resurslarni ixtiyoriy ravishda, kraufdanding platformalari vositasida aholi yoki tashkilotlarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida internet tizimidan foydalangan holda to'plash imkonini yuzaga keltiradi. Bunda pul mablag'lari asosan — tabiiy ofatdan jabrlanganlarga yordam berish; siyosiy kampaniyalarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash; turli xil start-ap hamda kichik biznes subyektlari investitsion loyihamalarini moliyalashtirish; ijtimoiy ahamiyatga molik infratuzilma loyihamalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi maqsadlarda to'planishi mumkin.

Tadbirkorlik subyektlari professional malakaga ega bo'lmagan, ammo o'z jamg'armalarining bir qismini iqtisodiy naf ko'rish hamda ijtimoiy jihatdan jamiyatda e'tirof etilish uchun investitsiyalash xohishi bo'lgan jismoniy shaxslar mablag'larini investitsion resurs sifatida jalb qilish maqsadida onlayn-hamjamiyatlarga kraufdanding platformasi yordamida murojaat qiladilar. *Ushbu turdagagi loyihamalar quyidagi yo'llar bilan realizatsiya qilinadi:*

- xayriya shaklidagi loyihamarni qo'llab-quvvatlash istagini bildirgan mamlakat aholisidan, bevosita moliyaviy mukofotlarni ko'zlamagan holda moliyaviy mablag'larni jalb qilish (faundrayzing) yo'li bilan;
- mablag'ni to'plagani hamda faoliyatni qo'llab-quvvatlagani uchun minnatdorchilik bildirish maqsadida grant beruvchi fuqaro/tashkilotning nomini jamoatchilik oldida ommaviy ravishda yoritish yo'li bilan;
- aksionerlik kapitali ko'rinishida moliyaviy mablag'larni jalb qilish yo'li bilan;
- investitsion kapital ko'rinishida moliyaviy mablag'larni jalb qilish yo'li bilan;
- xayriya shaklida moliyaviy mablag'larni jalb qilish yo'li bilan;

- qarz evaziga (kraudinvesting shaklida) aholi moliyaviy mablag'larini jalb qilish yo'li bilan.

Kraudinvesting o'zida aksionerlik shaklidagi kraufdandingni ifodalaydi, hamda quyidagilar uchun muqobil moliyalashtirish vositasi hisoblanadi:

- start-ap kompaniyalar va kichik biznes subyektlari loyihalariga mikro investorlar mavqega ega bo'lgan individual va professional investorlar doirasida mablag'larni jalb qilish;
- puxta ishlanmagan, ishonchlilik darajasi past bo'lgan biznes-rejaga ega bo'lgan hamda moliya-kredit va bank muassasalari orasida kredit majburiyatlari yuzasidan ma'lumotlar miqyosi keng bo'lмаган, yangi korxonalarga mablag'larni jalb qilish va h.k.

Kraudinvesting modelida investorlar kompaniya aksionerlik kapitalining nafaqat bir qismiga ega bo'ladilar, shu bilan bиргаликда ularga, kredit shaklidagi kraufdanding (teng darajada kreditlash) dagi kabi foydaning potensial hajmi qayd qilib borilmaganligi tufayli qo'yilgan mablag'larini yo'qotish riski xavf soladi.

Ko'pchilik mamlakatlarda kraufdanding platformasi faoliyatini amalga oshirish jarayonida investitsion piramidalr bilan bog'liq mojaroli holatlar yuzaga kelganligi tufayli qonunchilikda ushbu faoliyatga taalluqli bo'lgan cheklovlar belgilanganligini e'tirof qilish mumkin. Chunki investitsion piramida investitsion moliyaviy tuzilma ishtirokchilarini tizimning yangi ishtirokchilaridan investitsiyalarni surunkali jalb qilish evaziga daromadlar bilan ta'minlaydi. Uning amal qilish tamoyiliga ko'ra investitsion piramidan dastlabki ishtirokchilarining daromadlari unga yangidan qo'shilayotgan investorlarning qo'shayotgan investitsion hissalari hisobiga shakllantiriladi. Ushbu tizimda qisqa muddatli istiqbolda yuqori daromadlilikka erishiladi, barcha ishtirokchilarning ehtiyojlarini qondirishning esa iloji bo'lmay qolishi mumkin. Chunki loyiha e'lon qilinganidan past darajada mablag' keltirsa, yangi investitsiyalarning bir qismi dastlabki ishtirokchilar olishlari lozim bo'lgan daromadlarni to'lashga yo'naltiriladi va bu holat loyihaning inqirozga uchrashiga yoki so'nggi investorlarning zarar ko'rishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Investitsion piramidaning biznes loyihadan asosiy farqi daromadni to'lash manbasidadir. Agarda, biznes-loyiha ko'rinishidagi investitsion loyiha tomonidan ta'minlanadigan to'lovlar miqdori, qo'shimcha qiymat hajmini barqaror ravishda oshiradigan bo'lsa, demak u investitsion piramida hisoblanadi. Bunday investitsion loyihalarda potensial ishtirokchilarini risklarning mavjud emasligi, yuqori darajadagi daromadlilik hamda qo'yilgan mablag'larning tezda qaytarilishi ko'rinishidagi va'dalar hisobiga jalb qilishga harakat qilinadi. Ammo ko'pchilik tadqiqotchilarning fikr-mulohazalariga ko'ra davlat tomonidan "investitsiyalarni jalb qilishning muqobil yo'llaridan foydalanishga doir" huquqiy me'yorlarning qabul qilinishi bunday salbiy holatlarni ko'pchilagini bartaraf qilish imkoniyatini yuzaga keltirishi mumkin.

Investitsiyalar ijtimoiy va xo'jalik yurituvchi subyektlarga o'z ishlab chiqarish kuchlarini/quvvatlarini ko'paytirish bo'yicha harakatlarini tezroq boshlashlariga imkon beradi, shu bilan bиргаликда investitsiyalash korxona daromadlarini ko'paytirishga yo'naltirilgan tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirilish jarayonlarini yengillashtirishga ham xizmat qiladi.

Investitsion jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yuqori inflyatsiya darajasi, yuqori kredit stavkalari kabi qator hodisalarning ham mavjudligini ta'kidlash lozim. Shularni inobatga olgan holda investitsion jarayonning ikki yoki undan ko'p tomonlari o'rtasida investitsion sohada

o'zaro manfaatli hamkorlikni amalgalashishga imkon bera oladigan yangi mexanizmlarni izlab topish va qo'llash talab qilinadi. Shunday mexanizmlardan biri sifatida "**davlat sektori – xususiy sektor – uy xo'jaligi sektori**" shaklidagi uch tomonlama o'zaro manfaatli hamkorlikni o'zida aks ettira oladigan **DXSh mexanizmi** e'tirof etiladi. [10]

DXSh investorlarning imkoniyat doiralarini oshirgan holda mamlakat va uning hududiy birliklari iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish, davlat hokimiyati va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyati bilan bog'liq ravishda ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida yangi qulay sharoitlarning yuzaga kelishiga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra DXSh O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni [3] va boshqa me'yoriy-huquqiy aktlarda keltirilgan tartib-taomillarga asoslanadi. Me'yoriy-tashkiliy jihatdan DXSh davlat va biznesning ommaviy ravishdagi yoki xususiy sherikchilik ko'rinishidagi o'zaro manfaatli tashkiliy jihatdan yordamlashish shakliga asoslanadi.

Bunday sherikchilikning asosiy xususiyati iqtisodiy sohaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish; tovarlar va xizmatlar hamyonbopligini ta'minlash, hamda ularning sifat darajasini oshirilishini hokimiyat organlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishini yo'lga qo'yish maqsadida investitsion resurslarni birlashtirish va risklarni taqsimlash hisoblanadi.

O'zaro munosabatlarning birlashtirilishiga asoslangan investitsion mexanizm loyihaning muvaffaqiyatli realizatsiya qilinishiga kafolat beradi hamda potensial risklardan himoyani ta'minlaydi. O'zaro munosabatlar ishtirokchilari ommaviy hamda xususiy sheriklar hisoblanadi. Ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Birinchi turga quyidagilar tegishli bo'ladi, ya'ni:

1. O'zbekiston Respublikasi hukumatining respublika darajasidagi vakolatli organi (yoki ijro hokimiyatining vakolatli organi) (*respublika darajasi*);

2. O'zbekiston Respublikasi hukumatining mintaqaviy (yoki viloyat darajasidagi) vakolatli organi (yoki ijro hokimiyatining vakolatli organi) (*mintaqaviy/viloyat darajasi*);

3. Viloyat hokimligining hududiy darajadagi vakolatli organi (yoki hududiy ijro hokimiyatining vakolatli organi) (*hududiy/mahalliy darajasi*).

Ushbu vakolatli organlar darajalariga bog'liq holda mos ravishdagi tabaqlashgan vakolatlarga ega bo'ladilar.

O'zaro manfaatli munosabatlar ishtirokchilarining *ikkinchi turiga* DXSh ni amalgalashishga imkon bera oladigan yangi mexanizmlarni qilishda molik darajadagilardan tashqari.

DXSh quyidagi tamoyillarga asosan amal qilishi lozim:

- DXSh to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi va ulardan foydalanishning qulayligi (davlat doirasidagi yoki boshqa himoya qilinadigan sirlar ahamiyatiga molik darajadagilardan tashqari);

- raqobat kurashiga kirishish imkoniyatlarini ta'minlanganligi;

- tomonlarning huquqiy jihatdan va qonunan tengligi bilan aks ettiriladigan haq-huquqini cheklash, kamsitish, tahqirlashlarning yo'qligi;

- shartnoma majburiyatlarini vijdonan bajarilishi;

- shartnoma ishtirokchilari o'rtasida risk va majburiyatlarning haqqoniy taqsimlanishi;

- shartnomani tuzish borasidagi erkinlik va h.k.

Bundan tashqari DXSh loyihibarini realizatsiya qilishda moliyalashtiruvchi shaxslar zarur bo'ladi. Ular xususiy tomonga bitimni realizatsiya qilish uchun qaytarib berish, to'lash va

muddatlilik shartlariga binoan qarz mablag'larini taqdim qiladigan yuridik shaxslar, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan shartnoma bo'yicha birgalikda faoliyat ko'rsatadigan ularning birlashmalari hisoblanadi.

Quyidagilar DXShning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qilishi mumkin:

- muayyan shartnomalar shartlariga muvofiq ravishda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish uchun shartnoma obyektlaridan foydalanish;
- shartnomaga kiritilgan obyektlarning xavfsiz hamda foydalanishga yaroqli holatda bo'lishini ta'minlashga qaratilgan, chora-tadbirlar ko'rinishidagi turli xil texnik xizmatlarni ko'rsatish va b.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ravishda loyihalashtirilishi, qurilishi, barpo etilishi, yetkazib berilishi, moliyalashtirilishi, rekonstruksiya qilinishi, modernizatsiyalashtirilishi, foydalaniishi va xizmat ko'rsatilishi DXSh loyihasini ro'yobga chiqarish doirasida amalga oshiriladigan mol-mulk, mulkiy komplekslar, ijtimoiy infratuzilma, shuningdek, DXSh loyihasini amalga oshirish jarayonida joriy etilishi lozim bo'lgan ishlar/xizmatlar va innovatsiyalar DXSh obyekti hisoblanadi. [3]

DXSh loyihalari xususiy sektorning o'z mablag'larini investitsiyalashga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Ammo, individual investorlar va jismoniy shaxs hisoblanadigan mamlakat aholisi investitsion loyihalarda faqat vositachilar hisoblanadigan investitsion institutlar orqaligina ishtirok etishi mumkin. Bunda institutsional investorlar bilan o'zaro harakat hamma vaqt ham oddiy individual investor hisoblangan mamlakat fuqarolari uchun optimal va qulay usul bo'la olmaydi.

Investitsion faoliyatni amalga oshirish yuzasidan investoring xatti-harakatlarida asosan investor shaxsiyatidagi, o'z investitsion resurslarini to'plash va saqlash hamda kelgusida to'plangan kapitaldan investitsion jarayonda foydalanish, hamda investitsiyalarni milliy yoki xorijiy bozorlarga yo'naltirish motivi orqali aks ettiriladigan maqsadga muvofiqlik va ratsionallik ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi.

Investitsion faoliyatni amalga oshirishdan katta miqdorda daromad olish ko'zlanadigan — iqtisodiy va aholining hayot kechirish darajasi va sifatini oshirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy masalalar yechimiga qaratilgan — ijtimoiy motivlar maqsad qilinadi.

Fikrimizcha, DXSh moliyaviy-investitsion faoliyat rivojida o'ziga xos ijtimoiy nazorat vositasi ham hisoblanishi mumkin. Fuqarolar o'z mablag'larini ishlab chiqarish vositalarining real o'sishi bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishda investitsiya qilmasliklariga qaramasdan, ularning ahamiyati yetarlicha katta hisoblanadi. Chunki jamg'arish va investitsiyalash jarayonidagi farq iqtisodiyotni tushkun holatga solib qo'yishi va iqtisodiy muvozanatning buzilishiga olib kelish ehtimolligiga ega. Ko'pchilik fuqarolar moliyaviy savodxonlik darajasining nisbatan pastligi ularning investitsion faoliyatdagi ishtirokining ta'minlanishi uchun moliyaviy vositachilarga murojaat qilishlariga to'g'ri keladi. Bunday holatni bartaraf qilinishiga kraudfanding modeli xizmat qilishi mumkin. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarining kamligi O'zbekiston Respublikasida bu yo'nalishda investitsion faoliyatni amalga oshirish, investitsion faollik darajasini oshirish imkoniyatlarining yetarli darajada o'rganilmaganligidan dalolat beradi. Shunga qaramasdan biz xorijiy tajribalarga murojaat qilgan holda bu g'oyani O'zbekiston Respublikasi hududlarida amalga oshirilayotgan DXSh loyihalarida qo'llash imkoniyatlarini ba'zi jihatlarini ta'kidlashimiz mumkin.

DXSh mexanizmi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma obyektlariga yo'naltiriladigan investitsion resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga qaramasdan AQSh iqtisodiyotida DXSh loyihalari bo'yicha muvaffaqiyatga erishilishi qiyin holat hisoblanadi. Chunki ularni amalga oshirish jarayonida shaffoflik darajasini ta'minlashning qiyinligi hamda muhim infratuzilma aktivlari ustidan xususiy nazoratga nisbatan siyosiy oppozitsiyalar tomonidan ijtimoiy qarshiliklarga duch kelish ehtimolligi yuqori hisoblanadi. Bundan tashqari infratuzilma obyektlariga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni amalga oshirilishi, qoidaga muvofiq ravishda, institutsional investorlar tomonidan kapital uchun cheklangan bozorlarni yaratilishi va mahalliy hamjamiyat infratuzilma obyektlariga yo'naltiriladigan investitsiyalar-ning iqtisodiy ta'sirchanligini pasaytirgan holda cheklanadi. [1]

AQSh tajribasiga ko'ra, jamoatchilik uchun umumiy ravishda qimmatli qog'ozlar jalb qilinishi bo'yicha cheklovlarining olib tashlanishi kraufdanding platformalari orqali investitsiyalarni yangi loyihalarga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Ta'kidlaganimizdek, *investitsion kraufdanding* – investitsion loyihalar uchun kelajakda shakllantiriladigan kompaniyaga aksiyalar evaziga kichik miqdordagi mablag'larni investitsiyalash yo'li bilan mablag'larga ega bo'lish imkoniyati hisoblanadi. DXShni loyihalovchi tomonidan yaratilgan "muayyan maxsus vazifani bajarish maqsadida shakllantiriladigan kompaniya" yangi korxona hisoblanganligi tufayli u investitsion kraufdanding modelining yangi qoidalardan foydalanishi mumkin bo'ladi.

Tijorat ko'chmas mulklari loyihalari kabi investitsion kraufdanding modeli ham infratuzilma obyektlari loyihalarini ishlab chiquvchilariga mahalliy individual investorlardan kapital jalb qilishga imkon beradi. Bu esa, DXSh loyihasining amalga oshirilishi ko'pgina jihatlarda (*jamoatchilik va siyosiy qo'llab-quvvatlanishining ko'payishiga; shaffoflikning oshirilishiga; mahalliy loyihalarning bir nechta manbalardan moliyalashtirilish imkoniyatlarining ilgari surilishiga va h.k.*) foyda keltirishini e'tirof etadi.

DXSh loyihalariga kraufdanding platformasidan foydalanib investitsiyalarni jalb qilinish salohiyati bo'yicha xorijiy tajriba sifatida 2015 yilda AQShning Virjiniya shtatida gaz quvurlarini o'tkazish bo'yicha DXSh loyihasi yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu DXSh loyihasi keng qamrovga ega bo'lib, DXSh loyihalariga investitsiya mablag'larini kiritish istagida bo'lganlar uchun raqobatning zarur darajasini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Bunda jamoatchilikning barcha ishtirokchilari, shu jumladan mahalliy hamjamiyatlar ham DXSh loyihasida (P3 modelida) teng huquqli investor sifatida ishtirok etish imkoniyati yaratiladi. Bunday model risklarni taqsimlanishiga, g'oyalar almashinuviga, axborotlar ochiqligi va shaffofligini oshirilishiga hamda jamoatchilikning o'zaro hamkorlikdagi xatti-harakatlarining mustahkamlanishiga imkon yaratadi. Kraufdanding modeli DXShga davlat, tadbirkorlik subyektlari hamda fuqarolarning mablag'larini ham jalb qilish imkonini beradi.

Bu esa jamiyatda, infratuzilma obyektlarini rivojlantirish natijasida iqtisodiy samarani oshirgan holda, DXSh loyihalariga yo'naltiriladigan investitsiyalardan olinadigan foydaning bir qismini saqlab qolish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Davlat investitsiyalarining mavjudligi ham DXSh faoliyatining shaffofligini oshiradi. DXSh loyihalaridagi investitsiyalashga tegishli bo'lgan risklarga oid axborot zarur darajadagi tekshirish amalga oshirilgandan so'ng ommaviy ravishda oshkor qilinishi mumkin.

Kraudfanding platformasida ommaviy oshkor etiladigan axborotlarga oid hujjalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- investitsion loyiha risklarining reyestri:

- xaridlar to'g'risidagi hamma foydalanishi uchun ruxsat berilgan hujjalalar;
- obligatsiyalarni ommaviy ravishda joylashtirish to'g'risidagi har qanday "ochiq" holda foydalanishga ruxsat etilgan rasmiy bayonotlar;
- shartnomaviy kelishuvlar bo'yicha hujjalalar;
- yo'lovchilar oqimi/yoki trafigi va daromadlarini tadqiq etish kabi loyihamiy tadqiqotlar va boshqa shu kabilar.

Eng muhim, kraudfanding shaklidagi investitsiyalar DXSh uchun barqaror infratuzilma obyektlariga doir loyihalarni ilgari surish va samarali amalga oshirilishiga yordam beradi. AQSh qonunchiligiga muvofiq ravishda barqaror infratuzilma obyektlariga doir loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi investorlar, infratuzilma obyektlarini baholovchi reyting institutlari (Envision Infrastructure Rating System) [2] tomonidan baholanib barqarorlikka moyilligi namoyish etilgan loyihalarga o'z investitsion resurslarini yo'naltiradilar. Shu nuqtai nazaridan DXSh loyihasiga investitsion resurslarni jalg qilishdan manfaatdor bo'ladigan infratuzilma obyektlarini loyihalovchilar kapital bozoridagi o'z raqobatbardoshligini oshirish uchun infratuzilma obyektlari loyihalarining barqarorligini ta'minlashdan manfaatdor bo'ladilar. Bundan tashqari loyiha homiyalari loyihaning barqarorligi bilan bog'liq bo'lgan loyihaning ijtimoiy qaytimga ega ekanligini ham namoyish qila olsalar, investorlar nisbatan pastroq darajadagi moliyaviy qaytimga ham rozi bo'lishlari mumkin. Bu esa kapital qiymatini pasaytiradi va loyihaning iqtisodiy jihatdan hayotiyagini oshiradi.

DXSh loyihasi investitsiyalash uchun tanlangandan so'ng xususiy mutaxassis investitsion kraudfanding kampaniyasini shakllantiradi va loyihami moliyalashtirilish boshlanishi uchun loyiha to'g'risidagi ma'lumotlarni kraudfanding platformasiga joylashtirish bilan shug'ullanadi. Xususiy mutaxassis qimmatli qog'ozlarning miqdori va turini aniqlaydi va taklif to'g'risida eslatmalarni taqdim qiladi hamda qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bo'yicha kampaniyaning davomiylilik muddatini belgilaydi. Tartib taomillarga ko'ra xayr ehson cheklanmagan miqdorda bo'lishi mumkin, ammo investorlar akkreditatsiyalangan bo'lishlari lozim. Akkreditatsiyalangan va akkreditasiyanmagan investorlar uchun har bir mamlakat qonunchiligiga muvofiq ravishda muayyan darajadagi kapital taklifining yuqori chegarasi belgilanishi mumkin. [4]

Kapitalning turi moslashuvchan bo'lib, u oddiy, imtiyozli kapital, hamda konvertatsiyalangan va korporativ notalar shaklida ham bo'lishi mumkin. Investitsion kraudfanding kampaniyasining o'zi tijorat ko'chmas mulk kraudfanding saytlarida qo'llaniladigan modelga o'xshaydi. Loyiha to'g'risidagi axborot salohiyatlari investorlar tomonidan ko'rishi mumkin bo'lgan saytga yuklanadi. Axborot tijorat shart-sharoitlari, moliyaviy-investitsion modelning rasmiyatçilik shakllari va loyihami tafsiflovchi video lavhalarni o'z ichiga olishi mumkin (loyihami ishlab chiquvchining iltimosiga binoan oshkor qilmaslik shartnomasi ham talab qilinishi mumkin). Saytga murojaat qiluvchi investorlar loyihaning turi, geografiyasi, xavfsizligi, daromadliligining ichki normalari to'g'risida axborotlarni izlashlari va shunday shaklda o'zlarining investitsion maqsadlariga mos keladigan takliflarni topishlari mumkin. Bundan tashqari investor loyihami ishlab chiquvchiga yoki investitsion hamjamiyatga ishonchlilagini tekshirib ko'rish uchun sayt orqali savollar berishi

mumkin. Sayt taqqoslash va tahlil qilish uchun turli vositalarni taklif qilishi mumkin. Bu investorlarga qanday loyihalar ularga investitsion resurslarini yo'naltirish uchun to'g'ri kelishini aniqlashga yordam beradi.

Investorlar o'z investitsion resurslarini loyiha yo'naltirganlari-dan keyin kraufdanding platformasi investorlar uchun doimiy ravishda o'zaro munosabatlarga kirishish vositasiga aylanadi.

Platforma loyiha va uning amalga oshirilishi to'g'risidagi moliyaviy hisobotni to'laligicha tarqatadi, loyihaning amalga oshirilishi bo'yicha ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilangan holda taqdim qilib boradi. Platforma investorlarga loyihadan keladigan barcha daromadlar to'lovi amalga oshirilishini yengillashtiradi va o'zlarining individual investitsiyalari yoki loyihalar portfeli samaradorligini kuzatib borishlariga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, DXShning kraufdanding modeling maqsadi jamoatchilikni, xususan mahalliy hamjamiyatlar a'zolarini sherik sifatida amalga oshirilayotgan DXSh loyihalariga jalb qilinishiga ko'maklashishdan iborat. Investitsion kraufdanding modeli jamoatchilikni jalb qilinishida, rivojlanishning murakkab loyihalari va yangi korxonalarga investitsiyalarni jalb qilinishida shaffoflikni oshirish uchun ishonchli model hisoblanadi. Bundan tashqari, DXSh loyihasi ishtirokchilari manfaatlari bo'yicha kelishuvga binoan davlat agentliklari va kraufdanding platformalari loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga ko'maklashuvchi katalizator vazifasini ham o'taydi.

Bugungi kunda strategik ahamiyatga molik bo'lgan, mamlakat iqtisodiyotida ustuvor sohalardan biri sifatida e'tirof qilib kelinayotgan turistik xizmatlar ko'rsatish (TXK) sohasida ham DXSh loyihalari asosida investitsion loyihalarni amalga oshirilishi ham har tomonlama mamlakat va turistik salohiyati yuqori bo'lgan mintaqalar iqtisodiyoti uchun ham yuqori ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining turistik salohiyati yuqori bo'lgan bir qator mintaqalari bilan ajralib turadi. Hududlarning madaniy-tarixiy, gastronomik, ziyorat, rekreatsion va boshqa shakllardagi turistik salohiyati mahalliy va xorijiy biznes vakillarini o'z investitsion mablag'larini sohaga kiritish bo'yicha jalb qilish imkoniyatini oshirib kelmoqda. Bu esa mamlakat va uning mintaqalari innovatsion-investitsion jozibadorligini yanada oshirish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Respublikadagi investitsion faoliyatni faollashtirishga oid me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi ham TXK sohasida investitsion faollikning oshirilishiga bevosita imkon yaratmoqda.

TXK sohasiga investitsion resurslar oqimini yanada faollashtirish maqsadida kraufdanding platformalarining shakllantirilishi turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda innovatsion start-ap loyihalarni, mamlakatimiz hududlaridagi madaniy meros obyektlarini rekonstruksiya qilish orqali turistik xizmatlar ko'rsatish salohiyatini oshirishga, shu bilan birgalikda mahalliy aholi va xorijda o'z faoliyatini olib borayotgan mamlakatimiz fuqarolarining hududlarimiz madaniy meros obyektlarini rekonstruksiya qilish va turistik infratuzilmalarni shakllantirishda o'z investitsion resurslari orqali TXK sohasi rivojiga faol hissa qo'shish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Bunday shakldagi "yashil investitsiyalar" madaniy, tarixiy, ziyorat turizmini rivojlantirish bilan birgalikda sohada yosh tadbirkorlar innovatsion start-ap loyihalarini ham moliyalashtirish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi hududlarida 8210 ta moddiy madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olingan bo'lib, ulardan hududlar turistik salohiyatini oshirish bilan birgalikda

TXK sohasida ham DXSh mexanizmi asosida mahalliy, xorijiy va ommaviy shaklda moliyalashtirish imkonini beradigan “yashil investitsiyalar” dan samarali foydalanish tizimining yo’lga qo’yilishi sohada tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga, infratuzilma obyektlarining shakllantirilishiga hamda investitsion faollik darajasining oshirilishiga xizmat qilgan bo’lar edi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirib o’tilgan fikr-mulohazalar asosida DXSh va investitsion kraufdanding o’zaro bir-biriga bog’liq unsurlar ekanligini xulosa qilishimiz mumkin. Bu, DXShning mamlakatda moliyaviy-investitsion faollik darajasini oshiruvchi vosita hisoblanishi, kraufdanding esa o’z navbatida investitsion faollikni oshirilishida ishtirok etishi bilan ifodalanadigan ushbu faollikdan foydalanish usuli hisoblanishi bilan asoslanadi. DXShning kraufdanding modeli investitsion faollik komponentini rivojlantiruvchi yangi format hisoblanadi. Endilikda kraufdanding platformasi faoliyatining mexanizmi tufayli ijtimoiy muhim innovatsion-investitsion loyihalarda nafaqat yirik kapital egalari hisoblangan professional investorlar, shu bilan birgalikda fuqarolar ham unchalik katta bo’lmagan miqdordagi mablag’larini investitsion resurs sifatida DXSh loyihalariga yo’naltirish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Fikrimizcha DXSh loyihalarini mahalliy darajalarda mamlakatimiz TXK sohasining asosiy obyektlaridan hisoblangan madaniy meros obyektlarini rekonstruksiya qilish va yangi turistik infratuzilmalarni shakllantirish yo’nalishlarida qo’llanilishi ham dolzarb masala hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan DXSh ning kraufdanding modelidan foydalanish tajribasini O’zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida, shu jumladan TXK sohasida qo’llash uchun ushbu yo’nalishdagi qonunchilik me’yorlarini rivojlantirish va bunday loyihalarni amalga oshirish tajribalarini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq qilish talab qilinadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. About the Institute for Sustainable Infrastructure [Электронный ресурс] – URL: <https://sustainableinfrastructure.org/about-isi/>
2. <https://www.forconstructionpros.com/sustainability/article/10733351/envision-infrastructure-rating-system>
3. O’zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to’g’risida”gi №O’RQ-537-sonli Qonuni. 10.05.2019-y. <https://lex.uz/docs/4329270>
4. O’zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to’g’risida”gi №O’RQ-598-sonli Qonuni. 25.12.2019-y <https://lex.uz/docs/4664142>
5. Байхонов Б.Т. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг тармоқлар-аро тақсимланишини эконометрик моделлаштириш услубиётини такомиллаш-тириш. Монография. – Т.: Iqtisodiyot нашриёти, 2017. – 203 б. https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-02-10-04-01_8fa524cd40f0d43457ae3b6fd338d268.pdf
6. Валько Д.В. Краудфандинг как инструмент инвестирования в проекты устойчивого развития и его место в экосистеме зеленых финансов. <file:///C:/Users/user/Downloads/kraufdanding-kak-instrument-investirovaniya-v-proekty-ustoychivogo-razvitiya-i-ego-mesto-v-ekosisteme-zelenyh-finansov.pdf>
7. Имамназаров Ж. Ислом молия маҳсулотларини Ўзбекистонда татбиқ қилиш ва қўллаш юзасидан ўтказилган тадқиқот натижалари бўйича таҳлилий хисобот. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/_UZB_Landscaping-IF-in-Uzbekistan_final.pdf

8. Кружкова И.И. Привлечение финансирования в проекты государственно-частного партнерства. <file:///C:/Users/user/Downloads/privlechenie-finansirovaniya-v-proekty-gosudarstvenno-chastnogo-partnerstva.pdf>
9. Муродов Б. Муқобил молиялаштиришнинг моҳияти, объектив зарурати ва унинг аҳамияти. <https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/Murodov.pdf>
10. Олланазаров Б.Д., Файзуллаев Н.Б., Каландаров Ф.С. Инвестиционный краудфандинг как форма финансирования проектов государственно-частного партнерства. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. Хива – 2023. №5/2. б. 134-142.
11. Финансовая социология: учебное пособие / под ред. д-ра социол. наук, проф. А.В. Новикова, д-ра эконом. наук, проф. А.В. Ярашевой. – М.: Финансовый университет, 2016. – 344 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).